

“Turonbank” ATB Kengashining
2025-yil “29” dekabr dagi
“K-48” -son qarori bilan

“TASDIQLANGAN”

“Turonbank” ATB Boshqaruvinin
2025-yil “10” dekabr dagi
“B-144” -son qarori bilan

“MA’QULLANGAN”

Ro‘yxatga olindi № 1274

**“TURONBANK” AKSIYADORLIK TIJORAT BANKI TIZIMIDA
KORRUPSIYAGA QARSHI TARTIB-TAOMILLARNING
SAMARADORLIGINI MONITORING VA NAZORAT QILISH
TARTIBI**

Mazkur ““Turonbank” aksiyadorlik tijorat banki tizimida korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish Tartibi” (keyingi o‘rinlarda – “Tartib” deb yuritiladi) O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”, “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”, “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”, “Bank siri to‘g‘risida”gi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-sonli, 2020-yil 29-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6013-sonli, 2025-yil 21-apreldagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini samarali tashkil etishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-71-sonli Farmonlari, 2021-yil 6-iyuldagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5177-sonli, 2025-yil 21-apreldagi “Davlat organlari va tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalari mustaqilligini ta‘minlash hamda faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-147-sonli Qarorlari, Adliya vazirligi tomonidan 2000-yil 5-aprelda 916-son bilan ro‘yxatga olingan “Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ichki qoidalariga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida”gi Nizom, Markaziy bankning tegishli ko‘rsatma va tavsiyalari, Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi ISO 37001 standartining talablari, “Turonbank” aksiyadorlik tijorat banki (keyingi o‘rinlarda – “Bank” deb yuritiladi) Ustavi, 2023-2027-yillarda “Turonbank” ATBning rivojlanish strategiyasi, Bank tizimida Korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish choralari to‘g‘risidagi Siyosati, Bankning tegishli ichki tartib-qoidalar talablariga hamda Xalqaro moliya korporatsiyasi tavsiyalariga muvofiq ishlab chiqilgan.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Tartib Bank va uning hududiy bank xizmatlari markazi, bank xizmatlari va/yoki bank xizmatlari ofislarining ichki qoidasi hisoblanadi va Bank tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha belgilangan tartib-taomillar va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha qabul qilingan ichki qoida qoidalar bajarilishini monitoring va nazorat qilish tartibi hamda standartlarini belgilaydi.

2. Ushbu Tartibda quyidagi **asosiy atama va tushunchalar, tariflar hamda qisqartmalardan** foydalaniladi:

Bank — “Turonbank” aksiyadorlik tijorat banki;

BXM — Bank xizmatlari markazlari;

BXO — Bank xizmatlari ofisi;

Rahbar — Bank tarkibiy bo‘linmalari, BXM va (yoki) BXO rahbar(lar)i;

Monitoring — korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining amal qilishi samaradorligini baholash hamda bank faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish maqsadida tekshirish;

Mas’ul tarkibiy bo‘linma — Bankning Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha mas’ul tarkibiy bo‘linmasi;

Nazorat — tanqidiy o‘rganish ko‘rinishida amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi holatining tahlili tushuniladi;

Nazorat — tanqidiy o'rganish ko'rinishida amalga oshirilishi mumkin bo'lgan korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi holatining tahlili tushuniladi;

Korrupsiya — shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish;

Manfaatlar to'qnashuvi — Bank xodimining shaxsiy manfaati (bevosita yoki bilvosita) u tomonidan xizmat vazifalarini tegishli tarzda bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoki ko'rsatishi mumkin bo'lgan va xodimning shaxsiy manfaati bilan Bank manfaatlari o'rtasida ziddiyat yuzaga kelayotgan yoki kelishi mumkin bo'lgan vaziyat;

Korrupsiyaviy harakatlar — Bank xodimi tomonidan bevosita yoki bilvosita shaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali pora beruvchi manfaatlari yo'lida harakat yoki harakatsizlik uchun moddiy manfaatdor bo'lishi, shu jumladan pul, qimmatbaho qog'oz, boshqa ko'rinishdagi mulk va mulkiy huquqlar, mulkiy harakterdagi xizmatlar olish, talab qilish, undirish, taklif qilish yoki berish, pora berish va (yoki) olish yoki bunda vositachilik qilishda, rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun to'lovlar undirish (pora olish) va boshqa noqonuniy maqsadlarda o'z xizmat vazifalaridan noqonuniy foydalanish;

Korrupsiyaga qarshi tizim — korrupsiyaviy harakatlarning, O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonunchiligi va Bankning korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga doir ichki qoidalari buzilishining oldini olish, bank xodimlari tomonidan o'z faoliyatini professional va xulq-atvor jihatdan yuksak darajada amalga oshirilishini ta'minlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar;

Relevant xabar — Bank tizimidagi korrupsiyaviy xatti-harakatlar va (yoki) manfaatlar to'qnashuvi haqidagi axborotdan iborat bo'lgan axborot;

Bank xodimi — Bank bilan mehnat munosabatlariga kirishgan shaxs.

3. Korrupsiyaga qarshi kurashish tartib-taomillarining samaradorligini monitoring va nazorat qilish (keyingi o'rinlarda – monitoring va nazorat) Bankning **Mas'ul tarkibiy bo'linmasi** tomonidan amalga oshiriladi.

4. Monitoring va nazoratning asosiy maqsadlari quyidagilar hisoblanadi:

a) Bank faoliyatining korrupsiyaga qarshi qabul qilingan talablarga muvofiqligini tekshirish;

b) korrupsiyaga oid va boshqa huquqbuzarliklarning oldini olish, korrupsiyaga qarshi amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning yetarliligi va korrupsiyaga qarshi tadbiq etilgan tartib-taomillarning samaradorligini oshirish va baholash;

c) kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish orqali bankning korrupsiyaga qarshi komplaens tizimini takomillashtirish;

d) bankning korrupsiyaga qarshi ichki qoida qoidalari va tartib-taomillariga rioya qilinishini tahlil qilish;

e) bank faoliyatida korrupsiya xavf-xatarlar indikatorlarini aniqlash;

f) manfaatlar to'qnashuvini o'z vaqtida aniqlash va tartibga solishga qaratilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishini tahlil qilish;

g) bankning korrupsiya xavf-xatarlarini kamaytirishga qaratilgan boshqa tartib-taomillarining bajarilmaganligini aniqlash;

h) bank tizimida avvalgi o'tkazilgan monitoring natijalari va korrupsiyaga qarshi kurashish tartib-taomillari, xizmat tekshiruvlari, ichki audit tekshiruvlari, boshqa nazorat choralari va ular doirasida taqdim etilgan tavsiyalarga rioya qilinishi, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish rejasida tasdiqlangan boshqa tadbirlarning amalga oshirilishini nazorat qilish;

2-bob. Monitoring va nazorat o'tkazish yo'nalishlari va tadbirlari

5. Bank tizimida quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha korrupsiyaga qarshi **monitoring** o'tkaziladi:

- 1) me'yoriy korrupsiyaga qarshi tizimning aktualligi va uning qonunchilik talablari, shu jumladan, xalqaro standartlar talablariga muvofiqligi monitoringi;
- 2) ommaviy axborot vositalarida Bank xodim(lar)ining yoki u(lar)ni kontragent(lar)ining korrupsiyaviy hatti-harakatlari to'g'risidagi axborot mavjudligi monitoringi;
- 3) Bank xodimlarining korrupsiyaga qarshi asosiy tamoyil va talablardan xabardorligi monitoringi.

6. Bank tizimidagi korrupsiyaga qarshi tizimning **nazorati** quyidagi yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiriladi:

- a) korrupsiyaga qarshi dasturlar va yo'l xaritalari ijrosi ustidan nazorat;
- b) bank tizimidagi korrupsiyaga qarshi talablar va tartib-taomillarga rioya etilishi ustidan nazorat.

3-bob. Me'yoriy korrupsiyaga qarshi tizim monitoringini o'tkazish tartibi

7. Me'yoriy korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining aktualligi va uning qonunchilik talablari, shu jumladan, xalqaro standartlar talablariga muvofiqligi monitoringi **Mas'ul tarkibiy bo'linma** tomonidan doimiy ravishda O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashga oid qonunchiligi va boshqa korrupsiyaga oid talablarni (masalan, O'zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish Milliy kengashi qarorlari, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va Markaziy bankning ko'rsatmalari, xalqaro va chet el tashkilotlari tavsiyalari) kuzatib borish yo'li bilan amalga oshiriladi.

8. Bunda, zarurat tug'ilganda **Mas'ul tarkibiy bo'linma** monitoring yakunlari bo'yicha Bankdagi korrupsiyaga qarshi tizimini takomillashtirish, ichki qoida qoidalarni o'zgartirish yoki yangi qoidalar, chora-tadbirlar loyihasini ishlab chiqadi va tasdiqlash uchun Bank Boshqaruvi va Kuzatuv Kengashiga kiritadi.

9. Ommaviy axborot vositalarida Bank xodimlarining korrupsiyaviy xatti-harakatlari to'g'risidagi axborot mavjudligi monitoringi, **Bank matbuot xizmati** tomonidan doimiy ravishda ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarni kuzatish orqali amalga oshiriladi.

10. Monitoring natijasida bank xodimiga aloqador relevant xabar aniqlanganda Bankdagi xodimlarining korrupsiyaviy xatti-harakatlari va odob-ahloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o'tkazish bo'yicha ichki qoida qoidada belgilangan tartibda harakat qilinadi.

11. Bank xodimlarining asosiy korrupsiyaga qarshi tamoyillar va talablar to'g'risida xabardorligini tekshirish **Mas'ul tarkibiy bo'linma** tomonidan yarim yilda bir marta amalga oshiriladi.

12. Bank xodimlarining xabardorligi mazkur Tartibga **1-ildovada** keltirilgan bank xodimlarining korrupsiyaga qarshi tamoyillar va talablardan xabardorligini tekshirish tizimiga muvofiq o'tkazilib, quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1) tanlov asosda Bank xodimlarining tekshiruvda ishtirokini aniqlash (so'rovda qatnashadigan xodimlarning minimal soni bankning turli tarkibiy bo'linmalaridan turli lavozimlarni egallagan kamida 6 kishi);

2) korrupsiyaga qarshi kurashish tamoyillari va Bank talablariga muvofiq savollar ro'yxatini tuzish (vaziyatli topshiriqlar - keyslarni yechish bilan) savollarning minimal soni 10 ta, test, ochiq savollar yoki boshqa shaklda tuzilishi mumkin);

3) javob/yechimlarni taqdim qilish uchun tanlangan xodimlarga nazorat savollarini yuborish;

4) natijalarni tahlil qilish va korrupsiyaga qarshi kurashish talablari va tartib-taomillarini tushunish va ularga rioya qilishdagi qiyinchiliklarni xodimlar bilan muhokama qilish.

13. O'tkazilgan monitoring va uning natijalari to'g'risidagi axborot ushbu Tartibga **2-ildovada** keltirilgan shaklda jurnalga kiritiladi.

4-bob. Bankdagi korrupsiyaga qarshi tizimning nazoratini amalga oshirish

14. Bankning korrupsiyaga qarshi dasturlari va yo'l xaritalari ijrosi ustidan nazorat korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi holati to'g'risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo'yicha ichki qoida qoidaga muvofiq hisobot tuzish davomida amalga oshiriladi.

15. Korrupsiyaga qarshi talablar va tartib-taomillarga rioya etilishi ustidan nazorat Bankdagi korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini tashkil qiladigan funktsiya, tartib-taomillar, korrupsiyaga qarshi kurashish maqsadida korrupsiyaviy xavf-xatarlarga eng ko'p moyil bo'lgan munosabatlarga nisbatan Bank tizimida joriy etiladigan va amalga oshiriladigan chora-tadbirlarga nisbatan amalga oshiriladi.

16. Bank faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda Korrupsiyaga qarshi talablar va tartib-taomillarga rioya etilishi ustidan nazorat perimetriga quyidagi xavfli jarayonlar kiritilishi mumkin:

- a) xaridlar bo'yicha faoliyat;
- b) sovg'alar, xizmat safarlari xarajatlari;
- c) faoliyati nazorat qilinuvchi tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlik;
- d) moliyaviy mablag'larni sarflanishi;
- e) xodimlarni boshqarish (xodimlarni tanlash, tayinlash, lavozimini oshirish, mukofotlash va boshqa ko'rinishdagi rag'batlantirish).

17. Korrupsiyaga qarshi talablar va tartib-taomillarga rioya etilishi ustidan nazorat olib boriladigan faoliyat jarayonlarining ko'rsatilgan ro'yxati har yili korrupsiyaga oid xavf-xatarlarni baholash natijalariga ko'ra **Mas'ul tarkibiy bo'linma** tomonidan ko'rib chiqiladi va agar lozim bo'lsa, korrupsiya nuqtayi nazaridan xavfli bo'lgan yoki Bank uchun dolzarb bo'lmagan jarayonlar nuqtai-nazaridan, Bank rahbariyati va bankning tegishli tarkibiy bo'linmalari bilan kelishilgan holda, o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish orqali tuzatish kiritiladi.

18. Bir yoki bir nechta xavfli jarayonlarga nisbatan korrupsiyaga qarshi nazorat davriy oraliqda, lekin Bankning korrupsiyaga qarshi monitoring va nazorat rejasiga muvofiq har chorakda kamida 1 (bir) marta amalga oshiriladi.

19. Korrupsiyaga qarshi talablar va tartib-taomillarga rioya etilishi ustidan nazorat rejasi ikki kalendar yilga mo'ljallab **Mas'ul tarkibiy bo'linma** tomonidan joriy yilning **15-yanvariga qadar** shakllantiriladi va ushbu Tartibda ko'rsatilgan (16 va 17-bandlar) Bankning barcha jarayonlarini, tekshiriladigan davri va tekshiruv muddatlarini o'z ichiga olishi kerak. Shu bilan birga, tegishli chorakda tekshirilishi kerak bo'lgan xavf-xatar jarayonlarining ketma-ketligi va taqsimlanish jarayoni Bank tizimidagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash bo'yicha ichki qoida qoidaida ko'rsatilgan, mehnat resurslari bilan ta'minlagan holda qonunbuzarliklar to'g'risida xabar berish kanallari yoki boshqa usullar orqali, rahbariyatdan olingan joriy ko'rsatmalarga ko'ra **Mas'ul tarkibiy bo'linma** tomonidan belgilangan tartibda xavf-xatarlarni baholash natijalari bo'yicha jarayonlarning qoldiq xavf darajasiga qarab amalga oshiriladi.

20. Tayyorlangan Korrupsiyaga qarshi talablar va tartib-taomillarga rioya etilishi ustidan nazorat rejasi **31-yanvarga qadar** Bank rahbariyati tomonidan tasdiqlanishi kerak.

21. Bankda rejadani tashqari Korrupsiyaga qarshi talablar va tartib-taomillarga rioya etilishi ustidan nazorat choralari quyidagi hollarda amalga oshirilishi mumkin:

- 1) agar Boshqaruv Raisining tegishli buyrug'i mavjud bo'lsa;
- 2) Bankda o'tkazilgan boshqa tekshiruvlar (shu jumladan rasmiy tekshiruvlar, ichki auditorlik tekshiruvlari va boshqalar) davomida korrupsiya xatarlari aniqlanganda;
- 3) Bankning aloqa kanallari orqali tegishli xabar olingan taqdirda.

22. Nazorat tadbirlari tekshiruv shaklida o'tkazilib, shu jumladan, korrupsiyaviy harakatlarning indikatorlarini aniqlashga qaratilgan bo'lishi kerak, ular doirasida quyidagi tartib-taomillar ham amalga oshirilishi mumkin:

a) Bank tomonidan tuzilgan shartnomalar ma'lumotlarini tovarlarni qabul qilish va topshirish qoidalari yoki xizmatlar ko'rsatish, ishlarni bajarish qoidalari bilan solishtirish;

b) tovarlarni haqiqiy sotib olish va ulardan foydalanish yoki xizmatlar ko'rsatish, ishlarning bajarilishi to'g'risidagi hisobotlarni ularning miqdori va sifati bilan tegishli shartnoma va qoidalarda belgilangan tartibda solishtirish;

c) kontragent va Bank, shu jumladan, muvofiqlashtiruvchi shaxslar tomonidan shartnoma boshqa ma'muriy hujjatlar imzolovchilarining vakolatlari mavjudligini tekshirish, taqdim etilgan hujjatlarni vakolatli shaxslarning imzolari bilan vizual ravishda mosligini solishtirish; kontragentning rekvizitlarini va tegishli shartnoma bo'yicha summani buxgalteriya hisobi ma'lumotlari bilan solishtirish;

d) Bank yoki kontragent xodimlari tomonidan taqdim etilgan hujjatlarida tuzatish, o'chirish, soxtalashtirish belgilari yo'qligini tekshirish; qonun hujjatlariga va Bankning ichki hujjatlariga muvofiq talab etiladigan ommaviy axborot manbalarida e'lonlarning mavjudligini tekshirish (raqobatlashuv xarid qilish tartib-taomillarining e'lon qilinganligi to'g'risida ma'lumot va boshqalar);

e) paydo bo'layotgan masalalar bo'yicha qo'shimcha ma'lumot va izohlar olish uchun Bank xodimlari bilan suhbat.

23. Nazorat tadbirlari yakunida ma'lumotnoma tuziladi (keyingi o'rinlarda-Ma'lumotnoma deb yuritiladi), u kirish, tavsiflovchi va yakuniy qismlarni o'z ichiga olishi lozim va ularda, odatda, quyidagilar ko'rsatiladi:

I. Kirish qismida:

- 1) Har bir vazifa va tartib-taomillar uchun nazoratning boshlanish va tugallanish sanalari;
- 2) nazorat o'tkazilgan vazifa va tartib-taomillar ro'yxati;
- 3) nazorat o'tkazilgan vazifa va tartib-taomillarni bajarishga mas'ul bo'lgan bo'limlar va shaxslar ro'yxati;
- 4) Hisobotni tuzish uchun mas'ul xodimning FISH.

II. Tavsiflovchi qismida:

- a) nazorat o'tkazilgan har bir vazifa va tartib-taomillar bo'yicha tanlov amalga oshirilishi usuli va tanlash hajmi;
- b) Bank korrupsiyaga qarshi tizimining aniqlangan koidabuzilishlari va kamchiliklari, shu jumladan, kamchiliklarning paydo bo'lishi yoki rivojlanishiga hissa qo'shgan sabablar va sharoitlar.

III. Yakuniy qismida:

- 1) nazorat o'tkazilgan har bir vazifa va tartib-taomillarda korrupsiya xatarlarining mavjudligi yoki mavjud emasligi haqida xulosa;
- 2) O'zbekiston Respublikasi qonunchiligining buzilgan normalari, Bankning ichki qoidalari ko'rsatilgan asosiy qoidabuzarliklar;
- 3) nazorat o'tkazish vaqtida aniqlangan qoidabuzarlik yoki kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar.

24. Ma'lumotnomaga kiritilgan axborotlarni tasdiqlovchi hujjatlar, havolalar va ko'chirmalar nusxalari (mavjud bo'lsa) ilova qilinishi kerak.

25. Ma'lumotnoma Bank rahbariyatiga taqdim etiladi hamda o'tkazilgan nazorat to'g'risidagi ma'lumot 1-ilovaga muvofiq shaklda Jurnalga kiritiladi.

5-bob. Nazorat va javobgarlik

26. Bankning Mas'ul tarkibiy bo'linmasi Jurnalga doir ma'lumotlarni yig'ib borish uchun mas'ul hisoblanadi.

27. Bankning Mas'ul tarkibiy bo'linmasi ma'lumotlarni tahlil qiladi hamda monitoring va nazorat yakunlari bo'yicha ishlab chiqilgan tavsiyalarni Bankning korrupsiyaga qarshi kurashish dasturiga kiritadi.

28. Bankning barcha tarkibiy bo'linmalari, BXM va/yoki BXO rahbarlari so'ralgan hujjatlar (ma'lumotlar)ni belgilangan muddatda to'liq va sifatli taqdim etish bo'yicha javobgardir.

29. Ushbu Tartib Bank rahbariyati, barcha tarkibiy bo'linmalari, BXM va/yoki BXO rahbarlari va xodimlari uchun majburiy hisoblanib, ularning egallab turgan lavozimi, ish staji, mavqei va boshqa omillardan qat'i nazar mazkur Tartibning tamoyillari va talablariga rioya qilish uchun shaxsan javobgardir.

6-bob. Yakuniy qoidalar

30. Mazkur ““Turonbank” aksiyadorlik tijorat banki tizimida korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish Tartibi” Bank Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan kundan boshlab kuchga kiradi.

31. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Bankning ichki qoidalaridagi o‘zgarishlar kiritilganda, korrupsiyaga qarshi ilg‘or xalqaro amaliyot talablari o‘zgargan taqdirda ushbu Tartib qayta ko‘rib chiqiladi.

32. Bankning barcha tarkibiy bo‘linmalari, BXM hamda BXO rahbar va xodimlari ushbu Tartibga rioya etishi majburiy hisoblanib, Mas‘ul tarkibiy bo‘linma unga rioya etilishini va qonunchilikka o‘zgartirish va/yoki qo‘shimchalar kiritilganda mazkur Tartib qoidalariga zaruriy o‘zgartirish kiritishga mas‘ul hisoblanadi.

33. Ushbu Tartibga kiritiladigan barcha o‘zgartirish va qo‘shimchalar Bank Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

34. Mazkur Tartibda nazarda tutilmagan boshqa holatlar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi normativ-huquqiy qoidalari, Bank ichki qoidalari bilan tartibga solinadi.

35. Ushbu yangi tahrirdagi ““Turonbank” aksiyadorlik tijorat banki tizimida korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish Tartibi” tasdiqlanishi munosabati bilan “Turonbank” ATB Kuzatuv kengashining 2022-yil 25-fevraldagi K-14-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Turonbank” ATBda Korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish Uslubiyoti” o‘z kuchini yo‘qotadi.

**““Turonbank” aksiyadorlik tijorat banki tizimida xodimlarining
korrupsiyaga qarshi tamoyillar va talablardan xabardorligini tekshirish
TIZIMI**

T/r	Tekshiruv yo‘nalishi	Tekshiruv tadbirlari
1.	Bank xodimlariga odob-axloq qoidalariga, korrupsiyaga qarshi tamoyillar va talablarga rioya qilish masalalari bo‘yicha treninglar (onlayn va/yoki oflayn) o‘tkazilishining monitoringi	Treninglar muntazamligi, ularni mazmuni va qatnashuvchi shaxslar qismi bo‘yicha ichki talablarga rioya qilinishini nazorat qilish.
2.	Korrupsiyaga qarshi kurashish tamoyillari va tartib-taomillar talablarini bilishini tekshirish	Bank xodimlari tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish treninglari doirasida o‘tkaziladigan test yoki boshqa nazorat tadbirlaridan o‘tishlari natijalarining tahlili; Xodimlarni korrupsiyaga qarshi siyosat bilan imzo qo‘ydirilgan holda majburiy tarzda tanishtirilganligini tekshirish; Xodimlarni korrupsiyaga qarshi siyosat va tartib-taomillarning bilishini tanlov asosida tekshirish: a) tekshiruvda qatnashish uchun Bank xodimlarini tanlov asosida aniqlash (so‘rovda qatnashadigan xodimlarning eng kam soni – Bankda turli tarkibiy bo‘linmalardan turli lavozimlarni egallab turgan kishilar soni – 6 nafar); b) ichki hujjatlarda ko‘rsatilgan korrupsiyaga qarshi talablar va normalar bo‘yicha (muayyan vaziyatda vazifa – keyslarni hal qilish bilan) savollar ro‘yxatini tuzish (savollarning eng kam soni 10 ta, ular test formatida, ochiq savollar shaklida yoki boshqacha usulda tuzilishi mumkin); v) javoblar/qarorlarni taqdim qilishlari uchun tanlab olingan xodimlarga nazorat savollarini yuborish; g) natijalarni tahlil qilish va xodimlar bilan korrupsiyaga qarshi talablar va tartib-taomillarni tushunishda qiyinchiliklarni muhokama qilish.

**“Turonbank” aksiyadorlik tijorat banki tizimida korrupsiyaga qarshi
tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish
JURNALI**

T/r	Monitoring / tadbir turi	Chora-tadbirlarni monitoring qilish davriyligi (har chorakda/har yarim yilda/doimiy)	Monitoring / nazoratni o'tkazish sanasi	Kuzatuvni tafsiloti	Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini to'g'rilash choralari	Mas'ul ijrochi	To'g'rilanadigan chora-tadbirlarning ijro muddati	Ijro holati
Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining yetarliligini baholash								
1.	Bankdagi korrupsiyaga qarshi tizimning aktualligi va uning qonunchilik talablari, shu jumladan, xalqaro standartlar talablariga muvofiqligi monitoringi	Doimiy ravishda						
Korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini baholash								
2.	OAV monitoringi	Doimiy ravishda						
3.	Xodimlarining korrupsiyaga qarshi asosiy tamoyil va talablardan xabardorligi monitoringi	Har yarim yilda						
4.	Korrupsiyaga qarshi dasturlar va yo'l xaritalari ijrosi ustidan nazorat	Har chorakda						
5.	Bankdagi korrupsiyaga qarshi talablar va tartib-taomillarga rioya etilishi ustidan nazorat	Har chorakda						